

## MUQIMIY HAJVIY ASARLARIDA XALQ HAYOTI VA IJTIMOY MUAMMOLAR

**TDIU : Muxiddinova Muxlisa Sadriddinovna**  
**Meylixolov Mahmudbek O'lmasbekovich,**  
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti,  
"Raqamli Iqtisodiyot" fakulteti,  
Statistika, RST-76 guruh talabasi  
mahmudmeylixolov@gmail.com

**Annotatsiya:** Muqimiy hajviy asarlarida xalq hayoti va ijtimoiy muammolar haqqoniy tasvirlangan. U o'z davrining ijtimoiy adolatsizliklarini keskin tanqid qilib, amaldorlarning poraxo'rliqi, jaholat va qashshoqlikning keng tarqalganligini hajviy yo'sinda fosh etadi. Uning hajviyati xalqning dardu-hasratini aks ettirgan bo'lib, turmushdagi kamchiliklarni kulgili, ammo ibratli shaklda ko'rsatadi. Muqimiyning hajviy asarlari o'sha davr uchun o'ziga xos tanqidiy ruhga ega bo'lib, bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan.

**Kalit so'zlar:** Hajviya, ijtimoiy tanqid, xalq hayoti, adolatsizlik, poraxo'rlik, qashshoqlik, jaholat, amaldorlar, ibrat.

### Kirish.

O'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Muhammad Aminxo'ja Muqimiy (1850–1903) o'z asarlarida xalq hayoti, uning dardu tashvishlari, ijtimoiy adolatsizlik va amaldorlarning zulmini haqqoniy tasvirlagan. Uning ijodi o'z davrining muhim ijtimoiy muammolarini aks ettirib, realistik va tanqidiy yo'nalish bilan ajralib turadi. Muqimiy o'z she'rlarida xalqning og'ir turmushi, kambag'allarning ezilishi va boy-badavlat kishilarning adolatsizligi kabi masalalarni yorqin satira va hajv uslubida yoritgan. Shu bois u nafaqat shoir, balki ijtimoiy tanqidchi sifatida ham e'tirof etiladi. Uning asarlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, tarixiy haqiqat va adolatga intilishga undaydi.

Muqimiy XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Turkiston jamiyatining muhim masalalarini, ayniqsa, kambag'allar hayoti, amaldorlarning zulmi, adolatsizlik va jaholatni hajviy ruhda tasvirlagan. Muqimiyning asarlarida xalqning qiyinchiliklari, mehnatkashlar hayoti va ularning ijtimoiy tengsizlikdan aziyat chekishi aniq aks etadi. U o'z davridagi amaldorlarning poraxo'rliqi, mansabparastligi va boylarning xalq ustidan hukmronligini hajv orqali fosh qilgan. Shoir o'z satirik she'rlarida adolatsizlikni qoralab, haqiqatni ochiq-oydin bayon qilgan. Uning "Saylov" she'rida

saylov jarayonidagi nohaqliklar, “Madrasada” asarida esa eski ta’lim tizimining kamchiliklari tasvirlangan. Muqimiy xalqning dardu tashvishlarini o’z asarlarida aks ettirish bilan birga, kishilarni ilm-ma’rifatga, adolatga va haqqoniylikka chorlagan. Uning ijodi zamonaviy o’zbek adabiyotining shakllanishida muhim o’rin egallab, bugungi kunda ham dolzarbligini yo’qotmagan. Shoirning asarlari jamiyatdagi muammolarni tushunish va ularga qarshi kurashish uchun muhim adabiy meros hisoblanadi. Muhammad Aminxo’ja Muqimiy o’zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo’lib, uning ijodi xalq hayoti va ijtimoiy muammolarni chuqur yoritishda o’ziga xos uslub va mazmuniy boylik bilan ajralib turadi. Uning asarlarida o’sha davr insonlarining kundalik hayoti, mehnatkashlar qiyinchiliklari va ijtimoiy adolatsizliklar, poraxo’rlik, mansabparastlik kabi salbiy hodisalar keskin tasvirlanadi. Shoir va yozuvchi sifatida Muqimiy o’z ijodi orqali jamiyatdagi noto’g’ri holatlarni, ayniqsa, amaldorlarning adolatsizligi va boylarning xiyonatkorligini ochiq ko’rsatib, xalqning ruhiy va moddiy azoblarini aks ettirgan. Muqimiyning asarlarida xalq hayoti tasvirida oddiy insonning kundalik mehnati, umidi va qiyinchiliklari markaziy o’rin tutadi. U xalqning turmush tarzini, ularning o’zaro munosabatlari, urf-odatlarini va urf-eniqatlarini realistik tarzda ko’rsatib, o’z davr jamiyatining yuzini ochib bergan. Asarlarda nafaqat adolatga intilish, balki ijtimoiy yangilanish, taraqqiyot va insoniy qadriyatlarni himoya qilishga chaqiriqlar ham mavjud. Muqimiyning satirik asarlari o’z davr ijtimoiy tuzumining kamchiliklarini keskin tanqid qiladi. Masalan, uning “Saylov” she’rida saylov jarayonidagi adolatsizlik va amaldorlarning o’z manfaatlarini ustuvor qo’yishi, xalqning umidsizlikka tushishi ifodalanadi. “Madrasada” asarida esa o’qitish tizimidagi nosozliklar, ilmga bo’lgan munosabatning zaifligi va diniy ta’limning noto’g’ri yo’nalishi tanqid ostida bo’ladi. Shu tarzda Muqimiy adolat, haqiqat va ilm-ma’rifat yo’lida kurashishning zarurligini vijdoniy chaqiruv sifatida ifoda etadi. Uning ijodi orqali o’rta asr oxiri va yangi asr boshlaridagi ijtimoiy hayotning murakkabligi, o’zgarish ehtiyoji va inson ruhining chuqur qatlamlari ochib berilgan. Muqimiyning asarlarida yozuvchining o’zbek xalqiga bo’lgan chuqur muhabbati va fidoyiligi aks etadi. U, shubhasiz, o’z asarlari orqali xalqni adolat va haqqoniylik sari ilhomlantirgan, ijtimoiy tenglik va insoniy qadriyatlarni yuksaltirishga hissa qo’shgan.

Mening fikrimga qaraganda adolatparvar adib Muqimiy jadidchilikning asosiy namoyandalaridan biri bo’lgan, negaki shoirning maqsadi xalqni uyg’otish, uni savodli qilish, marifatli qilishga qaratilgan. Jamiyatdagi ayrim hufyona ishlarni o’z she’rlarida ochib bergan. Shu sabab ham uni ayrim amaldorlar yoqtirmagan. Marifatparvarning o’zi oddiy nonvoy oilada tug’ulganligi va dehqonchilik bilan

shug'ullanganligi sababli u xalq orasida ijtimoiy muammolarni ko'rib bilib yurgan. Muqimiy bir necha muddat Qo'qondagi yer o'lchash boshqarmasida ishlagan vaqtida bu ahvolni o'z ko'zi bilan ko'rdi. Bu uning "Tanobchilar" she'rida ham aks etgan. Atrofda yuz berayotgan nohaqliklar, fojialar shoir qalamining yanada o'tkirroq, keskinroq bo'lishiga olib keldi. Muqimiy xalq dardu quvonchlarini o'z asarlarida ifoda eta olgani uchun ham el o'rtasida mashhur bo'lib ketdi. Bir muxammasida shoir shunday deb yozgandi: **Kettilar hasrat bilan mardum yig'ib dunyo, darig', Hirsu g'aflat pardasi bosib, bo'lib a'mo, darig', Dahrin bir oliyhimmat bo'lmadi paydo, darig', Johu qudrat birla xok o'ldi g'aniylar, vo darig', Xayru ehsonin ko'rolmay benavolardin biri.** Muqimiyning hayoti doimo muhtojlikda o'tdi. U 1890 yilda o'z hovlisini sotib, pulini o'gay onasi va singillariga bo'lib bergach, mahallasidagi Sohibzoda Hazrat madrasasining bir hujrasiga ko'chib o'tib, o'sha yerda umrbod yashab qoldi. Muqimiy o'z davrining mashhur shoirlari bo'lmish Muhyi, Nisbatiy, Furqat, Zavqiy, Muhayyirlar bilan shu yerda uchrashib, do'stlashdi, ular bilan adabiy majlislar, mushoiralar o'tkazdi. Bu adabiy hamkorlik samaralarini biz mazkur shoirlarning ijodiy merosidagi bir xil mavzu, bir xil radif va qofiyadagi ko'plab she'rlarda ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Muqimiy, Muhyi, Furqat, Zavqiy, Nusrat, Nisbatiylarning birgalikda G'oziy g'azaliga bog'lagan muxammaslari, "Gul", "Sandali" radifli g'azallar, "Viktor" siklidagi satiralar, "Fonus", "Ko'samen" singari yumoristik she'rlar fikrimizga dalil bo'la oladi. Muqimiy madrasada turgani uchun ilm ahli sifatida unga ham vaqf daromadidan bir ulush berib turilardi. Lekin madrasa vaqflarini podsholik olib qo'yganligi uchun undan ham mahrum bo'lgan. Bu haqda Muqimiy jiyani Ro'zimuhammadga yozgan xatida shunday deydi: **"Har dafa xat beramiz - savg'osiz, sizga munosib yuborg'udek bir nimarsa yuborolmay xatlarimiz quruqdin-quruq borib, nihoyatda yozgan xatlarimizdin xijolat va sharmanda bo'lamiz.**

Haqiqatdan ham Muqimiy yashagan davr murakkab edi. Ana shunday murakkab davr Markaziy Osiyo, shu jumladan Chor Rossiyasining mustamlakasiga aylantirilgan sharoitda qalam tebratgan. Muqimiy oddiy xalq ichidan chiqqan va butun kuch-qudratini shu xalq uchun baxsh etgan shoir hisoblanadi. Ayni paytda, rus istilosi tufayli ijtimoiy hayotda kechayotgan o'zgarishlarni adabiyotga olib kirib, uning yangilanishida o'zining munosib hissasini qo'shdi. Uning she'rlari hayotlik davridayoq Turkistonning turli shaharlariga yoyilgan, shoirlar ularga muxammaslar bog'lar, xonandalar qo'shiq qilib aytar edilar. Muqimiy milliy ozodlik harakati haqida she'rlar yozgan, o'z salohiyati va mavqeyi bilan maktab yaratgan alloma edi<sup>5</sup>. U ezilgan mehnatkash omma, bechora kosib-u hunarmandlar va xonavayron qishloq dehqonlarining otashin kuychisi bo'lib maydonga chiqdi. Mustamlaka tuzimidagi

adolatsizlik va zo'ravonlikni, joriy tartib-qoidalarini, xalqona uslubda qoraladi. Uning asarlarida insoniy ishq-muhabbat ulug'landi. Shoir ularning hayotini, dard-u tashvishini, orzu-intilishlarini realistik bo'yoqlarda yuksak badiiylik bilan ifodaladi. Har qanday ilg'or adabiyotning eng muhim xususiyatlaridan biri xalqchillikdir. Demokratik adabiyot XIX asrning ikkinchi yarmidagi yangi tarixiy sharoit zaminida qad ko'tardi va o'sha davr hayotini o'zida aks ettirdi.

Shoirning turli janrlardagi lirik she'rlari singari "Dorig'o mulkimiz", "Hajviy Bekturboy", "Dar mardumi oqjar batariqi muxammas", "Dar mazammati zamona", "Ho'qandlik bir boyning sha'niga Muqimiy shoirning aytkon she'ridur", "Sayohatnoma", "Dar mazammati qurbaqa" kabi ko'plab ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi hajviy asarlari tahrir qilinib, qisqarishlar bilan nashr etilishi buning isbotidir. Jumladan, muxammas janridagi "Dorig'o mulkimiz" sarlavhali she'r Muqimiy asarlar to'plamida 6 band, asliyatda esa 8 band. Ikki band ataylab tushirib qoldirilgan. Bundan tashqari, muxammasning deyarli barcha bandlaridagi misralar tahrirga uchragan. Shundan so'ng joriy nashrga kiritilgan<sup>9</sup>. Natijada shoirning chor mustamlakachilariga bo'lgan tanqidiy qarashi, umuman, shoir ruhiy olami yashirilgan. Xuddi shunday holni muxammasning birinchi bandidagi misralarda ko'ramiz: Joriy nashrlarda:

Dorig'o mulkimizning sohibi ahli sharor o'lmish, Shariat hukmi qozilar qo'lida purg'ubor o'lmish, Ba joyi amri ma'ruf kori munkar oshkor o'lmish, Hakim-u, olim-u, sohib fasohat xor-u zor o'lmish, Bu kunda kimki imonin sotar, ul e'tibor o'lmish. Asliyatda esa: Dorig'o, dini islom hokimi ahli kuffor o'lmish, Shariat ko'zgusikim kufr gardidin g'ubor o'lmish, Ba joyi amri ma'ruf nahyi munkar oshkor o'lmish, Sayid, sodotlar behurmat-u, ko'p xor-u zor o'lmish, Bu kunda kimki imonin sotibdur, e'tibor o'lmish. Misralarni solishtirib ko'rilganda ko'rinadiki, she'r butunlay teskari tahlil qilingan. Natijada, shoirning tanqidi mustamlakachilarga emas, din peshvolariga, qozi-yu boylarga qaratilgan bo'lib qolgan. Aslini olganda shoirning maqsadi bunday emasligi oydinlashadi. Bu misralarda shoir "Shariat ko'zgusikim kufr gardidin g'ubor o'lmish"-deya sayidlar behurmat ekanligidan iztirob chekadi. Dinimiz, shariatimizning mustamlakachilar tomonidan poymol etilishi, oqibatda xalqning tobora shariatdan uzoqlasha borishi, umuman, millatning shunday ayanchli ahvolga, mustamlaka girdobiga tushib qolgani uning haqli e'tiroziga sabab bo'ladi. Zamonning ayanchli ahvolga tushib qolganini, nodon kimsalar hurmatda va izzatda-yu, ilm ahlining xor-u zor bo'lishi, ularda zarracha izzat yo'qligi kuyunchaklik bilan tilga olinadi: "Hazor afsuskim, ilm ahlida bir zarra izzat yo'q" deb boshlanuvchi she'rida

o'z ifodasini topgan. Shoir ijodida shunga o'xshash mavzudagi she'rlarni ko'p marotaba ko'zatishimiz mumkin.<sup>6</sup>

### **XULOSA.**

Ta'kidlash joizki, Muqimiy ijodi XX asrda keng miqiyosda o'rganilgan, u haqda kitoblar, to'plamlar, shoirning devonlari va bayozlar nashr qilingan bo'lsa-da, mustaqillikka qadar bir taraflama, faqat sobiq sovet hokimiyati manfaati ko'zlangan holda o'rganildi. Uning diniy, tasavvufiy mazmundagi asarlari o'rganilmadi. Tadqiqot doirasiga tortilganlari ham mazmuni buzilgan holda xalqqa taqdim etildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/muhammad-aminxo-ja-muqimiy-hayoti-va-faoliyatining-o-rganilishi>
2. Q. Pardayev. Oltin bitiglar. 2019 Vol.1. [www.navoiy-uni .uz](http://www.navoiy-uni.uz). 23-bet
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muqimiy>
4. G'ulom Karimov., "Muqimiy", T.: «Ma'naviyat». 2009.
5. Yoqubov H., O'zbek demokrat shoiri Muqimiy, T., 1953.
6. <https://ilmlar.uz/muqumiy-sherlari-muqimiy-ijod-yoli/>

---

<sup>6</sup> Q.Pardayev. Oltin bitiglar. 2019 Vol. 1.[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz).25-bet